

123

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI



VETERINARIYA GELMINTOLOGIYASI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 800000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi: 840000 – Veterinariya
Mutaxassislik: 70840303-Hayvonlarning parazitlar va yuqumli kasalliklari

Samarqand - 2024

Fan/modul kodi VG1108	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS – Kreditlar 8	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
Fanning nomi	Auditoriya Mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Veterinariya gelmintologiyasi	120		120	240
2.	<p align="center">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - barcha qishloq xo'jalik va uy hayvonlari, ayrim yovvoyi hayvonlarda, parrandalarda uchraydigan muhim epizootologik, epidemiologik ahamiyatga ega bo'lgan gelmintoz kasalliklari qo'zg'atuvchilarining sistematikasi, morfologiyasi, biologiyasi, ekologiyasi, yuqish va tarqalish yo'llari, manbalari, kasalliklarning rivojlanishi, kechishi, davolash va oldini olish yuzasidan nazariy va amaliy bilimlar yig'indisi bilan qurollantirib, ularga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – magistrantlarga veterinariya gelmintologiyasi fanining turli sohalari, qishloq xo'jalik va uy hayvonlari, parrandalarning gelmintoz kasalliklari va ulardagi mavjud muammolar bo'yicha chuqur bilimni singdirish; fan yutuqlarini amaliyotga tadbqiq etishga mo'ljallangan kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlarini ta'minlash; fanga oid va O'zbekiston hamda unga chegaradosh hududlarda uchraydigan gelmintoz kasalliklari bo'yicha mukammal tushunchalarni shakllantirishga erishish; morfologik, biologik, kasalliklarning epizootologik xususiyatlarini, kelib chiqishini, rivojlanishini, kechishini, yuqishini, tarqalishini, patogenezini immunitetini, xalq xo'jaligiga keltiradigan iqtisodiy va ijtimoiy zararlarini ilmiy asosda har tomonlama mahalliy hamda chorvachilik yuritish usullariga bog'lab o'rgatish; kasalliklarga tashxis qo'yish, ularni davolash, oldini olishning zamonaviy takomillashgan usullarini o'rgatish va bu boradagi tashkiliy ishlarni hal etish yo'llarini ko'rsatishdan iborat.</p> <p align="center">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p align="center">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1- mavzu. Veterinariya gelmintologiyasi faniga kirish</p> <p>“Veterinariya gelmintologiyasi” fanining ta'rifi, uning rivojlanish tarixi, biologiya, tibbiyot va boshqa veterinariya fanlari orasida tutgan o'rni.</p> <p>Tabiatdagi barcha trik organizmlar o'rtasidagi biotik bog'lanishlar. Gelmintlar va gelmintozlar. Gelmintozlarning epizootologik klassifikatsiyasi. Gelmintozlarning iqtisodiy, ijtimoiy zarari. Gelmintologik tekshirish usullari. Gelmintozlarning dalavolash va oldini olishning asosiy tamoillari. Veterinariya gelmintologiyasining maxsus qismlari.</p>			

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti “70840303- Hayvonlarning parazitlar va
yuqumli kasalliklari” mutaxassisligi uchun “Veterinariya gelmintologiyasi”
fanidan tayyorlangan dasturga
T A Q R I Z**

“O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017 yil 5 maydagi PQ-2959-son, “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi va 2022 yil 31 martdagi PQ-187-sonli “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi qororlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida o'quv rejalari va dasturlar, fanlar mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, kadrlar iste'molchilari hamda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining yangi o'quv-metodik komplekslarini yaratish hamda amaliyot uchun raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ularning bilim va ko'nikmalarini tubdan shakllantirish belgilangan.

Kredit-modul tizimiga asoslangan mazkur fan dasturida eng avvalo modulning kodi, o'quv yili, qaysi semestrda o'tilishi, kredit miqdori, auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim va jami soatlarda aks ettirilgan, fanning mazmuni, asosiy nazariy qism, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, fan o'qitilishining natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari, kreditlar olish uchun talablar, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati kiritilgan.

Shuningdek dasturda qishloq xo'jalik va uy hayvonlari, ayrim yovvoyi hayvonlarda, parrandalarda uchraydigan muhim epizootologik, epidemiologik ahamiyatga ega bo'lgan gelmintoz kasalliklari qo'zg'atuvchilarining morfologiyasi, biologiyasi, ekologiyasi, yuqish va tarqalish yo'llari, kasalliklarning rivojlanishi, kechishi, tashxis qo'yish usullari, davolash va oldini olishning ilmiy asoslangan zamonaviy usullari bayon etilgan va mavzularning ketma-ketligiga e'tibor berilgan.

“Veterinariya gelmintologiyasi” fanidan fan dasturi kredit-modul tizimiga asoslangan Davlat ta'lim standarti, Malaka talablari, O'quv rejasiga muvofiq tayyorlanganligi, uslubiy jihatdan to'g'ri tayyorlanganligi, hozirgi kundagi me'yoriy hujjatlarga mos kelishini inobatga olib, uni tasdiqlashga va o'quv jarayoniga joriy etishga tavsiya qilaman.

Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti
Gelminologiya laboratoriyasi mudiri,
v.f.f.d. *(yozilgan)* ilmiy xodim

(imza) J.M.Isayev



(yozilgan) *(imza)* *(yozilgan)*

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "70840303- Hayvonlarning parazitlar va yuqumli kasalliklari" mutaxassisligi uchun "Veterinariya gelmintologiyasi" fanidan tayyorlangan dasturga

T A Q R I Z


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-maydagi PQ-2959-sonli "O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2022-yil 31-martdagi PQ-187-sonli "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qororlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida o'quv rejalar va dasturlar, fanlar mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, kadrlar iste'molchilari hamda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining yangi o'quv-metodik komplekslarini yaratish hamda amaliyot uchun raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ularning bilim va ko'nikmalarini tubdan shakllantirish belgilangan.

Kredit-modul tizimiga asoslangan mazkur fan dasturida eng avvalo modulning kodi, o'quv yili, qaysi semestrda o'tilishi, kredit miqdori, auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim va jami soatlarda aks ettirilgan, fanning mazmuni, asosiy nazariy qism, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, fan o'qitilishining natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari, kreditlar olish uchun talablar, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati kiritilgan.

Dasturda veterinariya gelmintologiyasi fanining turli sohalari, qishloq xo'jalik va uy hayvonlarining gelmintozlari bo'yicha, kasallik qo'zg'atuvchilarining morfologik, biologik, epizootologik xususiyatlarini, kasalliklarni kelib chiqishi, rivojlanishi, kechishi, yuqishi, tarqalishi, immuniteti, xalq xo'jaligiga keltiradigan iqtisodiy va ijtimoiy zararlari, kasalliklarga tashxis qo'yish, ularni davolash, oldini olishning ilmiy asoslangan zamonaviy usullarini o'rganish to'liq aks ettirilgan.

"Veterinariya gelmintologiyasi" fanidan fan dasturi kredit-modul tizimiga asoslangan Davlat ta'lim standarti, Malaka talablari, O'quv rejasiga muvofiq tayyorlanganligi, uslubiy jihatdan to'g'ri tayyorlanganligi hamda hozirgi kundagi me'yoriy hujjatlarga mos kelishini inobatga olib, uni tasdiqlashga va o'quv jarayoniga joriy etishga tavsiya qilaman.

Sh.Rashidov nomidagi SamDU
O'simliklar fiziologiyasi va
mikrobiologiya kafedrası
professori, b.f.d.



Sh.Rashidov

2-mavzu. Gelmintozlarning epizootologiyasi, epidemiologiyasi, patogenezi, immuniteti

Gelmintozlar, trematodozlar, sestodozlar, nematodozlar, biogelmintozlar, geogelmintozlar, oraliq, asosiy xo'jayinlar, epizootologiya, epidemiologiya, epizootiya, enzootiya, panzootiya, patogenezi, immunitet, biogeotsenozlar.

Gelmintozlarga xos epizootik va epidemiologik jarayonning kechishi. Gelmintozlarning umumiy patogenezi. Gelmintozlarga xos immunitetni yuqumli va protozo y kasalliklardagi immunitetdan asosiy farqi va uning turlari.

3-mavzu. Gelmintozlarning iqtisodiy va ijtimoiy zarari, diagnostikasi

Gelmintozlar oqibatida xalq xo'jaligiga, xususan chorvachilikga keltiriladigan iqtisodiy zarar, inson salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy zarar.

Zooantroponozli gelmintozlarning ijtimoiy zarari. Gelmintozlarning diagnostikasi. Hayvonlar tirikligida o'tkaziladigan diagnostik usullar. Hayvonlar nobud bo'lganda o'tkazilgan diagnostik usullar.

4- mavzu. Gelmintozlarga qarshi kurashning bioekologik asoslari

Gelmintozlar qo'zg'atuvchilarining biologiyasi va ekologiyasi, epizootologik ma'lumotlar, chorvachilik yuritish usullari. Gelmintozlarning davolash va oldini olishning asosiy prinsiplari. Akademik K.I.Skryabinning "Devastatsiya" to'g'risidagi nazariyasining mohiyati. Gelmintozlarga qarshi o'tkaziladigan kompleks tadbirlar. Qishloq xo'jalik hayvonlarida uchraydigan gelmintozlar – trematodalar, sestodlar, nematodalar tomonidan qo'zg'atiladigan kasalliklarni davolash, oldini olish usullari.

5-mavzu. Trematodozlar qo'zg'atuvchilarining evolyutsiyasi, sistematikasi, morfologik, biologik va ekologik xususiyatlari

Trematodlar tomonidan chaqiriladigan kasalliklar qo'zg'atuvchilarining kelib chiqishi. Trematodlarning sistematikasi, taraqqiyoti, anatomo-morfologiyasi, biologik va ekologik xususiyatlari, tarqalishi, xo'jayinlariga yuqish yo'llari. Trematodozlar qo'zg'atuvchilarining evolyutsiyasi va tur tarkibi haqida ma'lumotlar. Trematodoz qo'zg'atuvchilarining morfologik, biologik va ekologik xususiyatlari.

6-mavzu. Ikki xo'jayinli trematodalar chaqiradigan kasalliklar

Ikki xo'jayin ishtirokida rivojlanuvchi trematodalar qo'zg'atadigan trematodozlar – fassiolozlar, paramfistomatozlar, orientobilgarsioz. Kasallik qo'zg'atuvchilari, ularning areali, anatomo-morfologik, biologik, ekologik xususiyatlari, kelib chiqishi, kechishi, patogenezi, klinik belgilari, patologik anatomiyasi, diagnostikasi. Ikki xo'jayinli trematodalarni davolash va oldini olish choralari. Ikki xo'jayinli trematodalar chaqiradigan kasalliklarga qarshi kurashning bioekologik asoslari.

7- mavzu. Uch xo'jayinli trematodalar chaqiradigan kasalliklar

Uch xo'jayin ishtirokida rivojlanuvchi trematodalar chaqiradigan kasalliklar. Dikrotselioz, euritrematoz, xasstilezioz, opistorxoz, prostogonimoz. Kasalliklarning qo'zg'atuvchilari, ularning areali, anatomo-morfologik, biologik, ekologik xususiyatlari, tarqalishi, yuqishi.

<p>Kasalliklarning kechishi, patogenezi, klinik belgilari, patologik anatomiyasi, diagnostikasi, davolash va oldini olish choralari. Uch xo'jayinli trematodalar chaqiradigan kasalliklarga qarshi kurashning bioekologik asoslari.</p> <p>8-mavzu. Trematodozlarga qarshi kurashning bioekologik asoslari</p> <p>Trematodoz kasalliklarining epizootologik xususiyatlari. Ularning qo'zg'atuvchilarining taraqqiyoti, ekologiyasi, ularga qarshi kurash va ularni tarqalishini oldini olishning bioekologik asoslari.</p> <p>Trematodoz qo'zg'atuvchilarining biologik va ekologik xususiyatlari, tarqalishi, kasalliklarning rivojlanishi, kechishi, manbai, epizootologiyasi va tashxisi. Kasallikni davolash va oldini olishdagi chora-tadbirlar.</p> <p>9-mavzu. Sestodozlar qo'zg'atuvchilarining morfologik, biologik va ekologik xususiyatlari, sistematikasi</p> <p>Sestodoz qo'zg'atuvchilarining anatomo-morfologiyasi, ularning biologik va ekologik xususiyatlari, xo'jayinlarga yuqishiga, tarqalishiga ta'sir qiluvchi bioekologik omillar. Sestodlarning sistematikasi. Sestodlarning morfologik xususiyatlari. Sestodlarning lichinkalik shakllarining tuzilishi.</p> <p>Tasmasimon chuvalchanglar (Pseudophyllidea) larning morfologik va biologik xususiyatlari. Zanjirsimon chuvalchanglar (Syclophyllidea)ning morfologik va biologik xususiyatlari.</p> <p>10-mavzu. Larvalli sestodozlar</p> <p>Qishloq xo'jalik hayvonlari va odamlarga xos zooantroponozli sestodozlar qo'zg'atuvchilarining sistematikadagi o'rni va morfologik xususiyatlari. Qoramol va cho'chqa sistitserkozlari. Larvalli exinokokkoz, alveokokkoz va sereberalli senuroz.</p> <p>Kasallik qo'zg'atuvchilari, ularning geografik tarqalishi, iqtisodiy va ijtimoiy zarari, epizootologiyasi, epidemiologiyasi, kechishi, diagnostikasi, tarqalishiga ta'sir qiluvchi ekologik omillar, qarshi kurashish va oldini olish chora-tadbirlari.</p> <p>11-mavzu. Imaginalli sestodozlari</p> <p>Kavshovchi hayvonlarning imaginalli sestodozlari – Anoplotsefalyatozlar. Imaginalli sestodozlar tomonidan qo'zg'atiladigan gelmintoz kasalliklar – Moniezioz, tizaniezioz, avitellinoz, stilezioz.</p> <p>Kasallik qo'zg'atuvchilarining morfologik, biologik va ekologik xususiyatlari. Kasalliklarning epizootologiyasi, kechishi, tarqalishi, diagnostikasi, davolash, qarshi kurashish choralari.</p> <p>12-mavzu. Sestodozlarga qarshi kurashning biologik, ekologik asoslari</p> <p>Sestodozlarga xos epizootik jarayonning kechishi. Larvalli sestodozlarga qarshi kurashning biologik va ekologik asoslari. Imaginalli sestodozlarga qarshi kurashning biologik va ekologik asoslari.</p> <p>Sestodoz qo'zg'atuvchilarining biologiyasi, ekologiyasi, tarqalishi, rivojlanishi, kechishi, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, epizootologiyasi, tashxis qo'yish, qiyosiy tashxis, davolash, oldini olish va qarshi kurashish choralari.</p>	
---	--

	<p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.</p> <p>5. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.</p> <p>6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.</p> <p>7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.</p> <p>8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.</p> <p>9. Эргашев Э.Х., Абдурахмонов Т.А. "Чорва молларининг гельминтозлари" Ўқув қўлланма, "Мехнат" нашриёти Тошкент, 1992. – 208 бет.</p> <p>10. Ятусевич А.И. и др. Паразитология и инвазионные болезни животных. Учебник. Минск. ИВЦ Минфина. 2017 год.</p> <p>11. Denis Jacobs, mark Fox, Lynda Gibbons, Carlos hermosilla // Principles of Veterinary Parasitology // Wiley Blackwell, USA, 2016.</p> <p>Axborot manbaalari</p> <p>1. www.gov.uz 2. www.lex.uz 3. www.vetgov.uz 4. www.ziyonet.uz 5. www.labirint.ru</p>
7.	Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "20"-avgustdagi "12-sonli bayoni bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: Daminov A.S. – SamDVMCHBU, "Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish" kafedrası professori, veterinariya fanlari doktori; Qurbanov Sh.X.–SamDVMCHBU, "Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish" kafedrası dotsenti, veterinariya fanlari nomzodi.
9.	Taqrizchilar: O'roqov S.X. - Sharof Rashidov nomidagi SamDU "O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya" kafedrası professori, biologiya fanlari doktori. Isayev J.M. - Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti "Gelmintologiya" laboratoriyasi mudiri, veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori., PhD.

	<ul style="list-style-type: none"> – amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi; – kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim. <p>Bunda ilmiy amaliyot (stajirovka)ga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida ham bajarishi ko'zda tutiladi. Ushbu holatda stajirovkani tashkil etish tartib-qoidolari amaldagi normativ-huquqiy hujjat (Nizom) asosida olib boriladi.</p>
3.	<p>VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:</p> <ul style="list-style-type: none"> • hayvonlar orasida uchraydigan gelmintoz kasalliklari qo'zg'atuvchilarining morfologik, biologik, ekologik xususiyatlari yuqish yo'llari, manbalari gelmintlarning asosiy va oraliq xo'jayinlarida rivojlanishi kasalliklarning kechishi, tarqalishi, keltiradigan iqtisodiy, ijtimoiy zararlarini har bir kasallikni ilmiy va amaliy tomondan asoslash, ularni aniqlash, davolash, oldini olish usullari haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i> • turning sistematik o'rmini aniqlash gelmintologik tekshirish usullarini farqlash, gelmintlarni bir-biridan morfologik va anotomik farqlash, parazitlarga qarshi kurash olib borishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i> • hayvonot dunyosida turlarni sistematalash, gelmintologik tekshirishlar o'tkazish, gelmintlarni yashash joylarini, inson va hayvonlarga etkazadigan zararini aniqlash parazitlarning tarqalishini oldini olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; (malaka)</i>
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Azimov Dj.A., Yatusevich A.I., Yunusov X.B., Davlatov R.B., Norqobilov B.T., Djabborov Sh.A., Daminov A.S., Oripov A.O., G'afurov A.G'., Yuldashov N.E., Qurbanov Sh.X. "Parazitologiya va invazion kasalliklar". Darslik, "Fan ziyosi" nashriyoti Toshkent, 2024 yil.</p> <p>2. Oripov A.O., Davlatov R.B., Yo'ldoshev N.E. Veterinariya gelmintologiyasi. O'quv qo'llanma. "Navro'z" nashriyoti, Toshkent, 2016 yil. – 240 bet.</p> <p>3. Хакбердиев П.С., Курбанов Ш.Х. Паразитология фанидан амалий ва лаборатория машғулоти. Ўқув қўлланма. "Optima print plus" нашриёти Тошкент, 2015 йил. – 216 бет.</p>

<p>13-mavzu. Nematodoz qo'zg'atuvchilarining morfologik, biologik, ekologik xususiyatlari</p> <p>Nematodoz qo'zg'atuvchilarining biologiyasi, ekologiyasi, tarqalishi, rivojlanishi, kechishi, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati. Nematodoz qo'zg'atuvchilarining epizootologiyasi, tashxis qo'yish, qiyosiy tashxis, davolash, oldini olish va qarshi kurashish choralari.</p> <p>Geonematodalar va bionematodalarga ta'rif. Geonematodalar va bionematodalar chaqiradigan kasalliklar. Nematodozlarga tashxis qo'yish va ularni oldini olishdagi muhim chora-tadbirlar.</p> <p>14-mavzu. Askaridatozlar</p> <p>Askaridatozlar va ular chaqiradigan kasalliklar, qo'zg'atuvchilarining morfologiyasi, biologiyasi, ekologiyasi. Kasallikning tarqalishi, xo'jayinlarga yuqishi, patogenez, diagnostikasi va oldini olish chora-tadbirlari.</p> <p>Cho'chqa askaridozi, ot paraskaridiozi va parranda askaridiozining qo'zg'atuvchilari, sistematikasi, morfologiyasi, biologiyasi va qiyosiy tashxisi. Zamonaviy davolash va oldini olish choralari.</p> <p>15-16-mavzular. Hazm organ strongilatozlarining morfologik, biologik, ekologik xususiyatlari</p> <p>Hazm organ strongilatozlari va ular chaqiradigan kasalliklar. Hazm organ strongilatozlari qo'zg'atuvchilarining morfologiyasi, biologiyasi va ekologiyasi.</p> <p>Nematodalar, strongilyatozlar, gemonxoz, nematodiroz, marshallagioz, xabertioz, bunostomoz, ezofagostomoz, trixotsefalyoz, diktiokaulyozi tarqalishi. Xo'jayinlarga yuqishi, patogenez, diagnostikasi va oldini olish chora-tadbirlari.</p> <p>17- mavzu. Nafas tizimi strongilyatozlari</p> <p>Nafas tizimi strongilyatozlari va ular chaqiradigan kasalliklar. Nafas tizimi strongilyatozlari qo'zg'atuvchilarining morfologiyasi, biologiyasi, ekologiyasi, tarqalishi, xo'jayinlarga yuqishi, patogenez, diagnostikasi, oldini olish chora-tadbirlari.</p> <p>Diktiokaulyozi qo'zg'atuvchisining sistematikasi. Diktiokaulyozi qo'zg'atuvchisining morfologiyasi, biologiyasi, lichinkalik shakllari, qiyosiy tashxisi, davolash va oldini olish choralari.</p> <p>18- mavzu. Trixotsefalyatoz, trixinillyoz va telyazioz</p> <p>Trixotsefalyatozlar va ular chaqiradigan kasalliklar. Trixotsefalyatozlar qo'zg'atuvchilarining morfologiyasi, bioekologiyasi, tarqalishi, diagnostikasi va oldini olish chora-tadbirlari.</p> <p>Cho'chqa trixinillyozi. Qoramol telyaziozi. Kasallik qo'zg'atuvchilarining sistematikasi, morfologiyasi, biologiyasi va qiyosiy tashxisi, davolash va oldini olish choralari.</p> <p>19-mavzu. Geonematodozlarning oldini olish, ularga qarshi kurashning bioekologik asoslari</p> <p>Geonematodozlar ular chaqiradigan kasalliklar. Geonematodozlar qo'zg'atuvchilarining morfologiyasi, biologiyasi, ekologiyasi, epizootologik</p>

xususiyatlari, ularning rivojlanishiga, tarqalishiga, xo'jayinlariga yuqishiga ta'sir qiluvchi ekologik omillar. Taraqqiyot tiplari – ochiq, yarim ochiq, yarim yopiq, yopiq. Geonematodozlarga qarshi kurashish va oldini olishning bioekologik asoslari.

20-mavzu. Bionematodozlarning oldini olish, ularga qarshi kurashning bioekologik asoslari

Bionematodozlar ular chaqiradigan kasalliklar. Bionematodozlar qo'zg'atuvchilarining morfologiyasi, biologiyasi, ekologiyasi, epizootologik xususiyatlari, ularning rivojlanishiga, tarqalishiga va xo'jayinlariga yuqishiga ta'sir qiluvchi ekologik omillar. Taraqqiyot tiplari – ochiq, yarim ochiq, yarim yopiq, yopiq. Bionematodozlarga qarshi kurashishning bioekologik asoslari va oldini olish chora-tadbirlari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

III.I. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Hayvonlarni tirikligida tashxis qo'yish
2. Trematodalarini diksen va triksen taraqqiyoti
3. Trematodalar va ularning sistematikasi, morfologiyasi, bioekologiyasi
4. Jigar trematodozlari va ularga qarshi kurash
5. Oshqozon-ichak trematodozlari va ularga qarshi kurash
6. Trematodozlarni davolash, oldini olish va ularga qarshi kurash
7. Sestodalar va ularning sistematikasi, morfologiyasi, bioekologiyasi
- 8-9. Larval sestodozlar.
10. Imaginali sestodozlar
11. Go'shtxo'r hayvonlar sestodozlari va ularga qarshi kurash
12. Ichak sestodozlari va ularga qarshi kurash
13. Sestodozlarni davolash, oldini olish va qarshi kurashish usullarining bioekologik asoslari
14. Nematodalar va ularning sistematikasi
15. Askaridatozlar va ularga qarshi kurash
16. Oksiuratozlar va ularga qarshi kurash
17. Otlarning strongilyatozlar va ularga qarshi kurash
18. Kavshovchi hayvonlarning strongilyatozlar va ularga qarshi kurash
19. Trixotsefalyatozlar diagnostikasi va ularga qarshi kurash usullari
20. Nematodozlarni davolash, oldini olish va tashxis qo'yish usullari

III.II. Laboratoriya mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Gelmintlarni fiksatsiya qilish va saqlash usullari o'rganish
- 2-3. Gelmentlarni tuxumlari va ularni identifikatsiya qilish usullari
4. Hayvonlarni umumiy va maxsus tekshirish usullari
5. Trematodalarning morfologiyasini va lichinkalik shakillarini o'rganish
6. Trematodalarga tekshirish usullarini o'rganish
- 7-8. Sestodozlarning morfologiyasini va lichinkalik shakillarini o'rganish
- 9-10. Sestodozlarga tekshirish usullarini o'rganish
11. Hayvonlarni sistitserkozga tekshirish usullarini o'rganish
12. Nematodalarning morfologiyasini va lichinkalik shakillarini o'rganish

- 13-14. Nematodalarga tekshirish usullarini o'rganish
- 15-16. Geonematodozlarni morfologiyasini o'rganish
- 17-18. Bionematodozlarni morfologiyasini o'rganish
- 19-20. To'liq va noto'liq gelmintologik yorish usullari

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Gelmintologiya fanining rivojlanish tarixi va hozirgi holati
2. Gelmintlarning oraliq xo'jayinlari va ularning tarqalishi
3. Go'shtxo'r hayvonlarning trematodozlari
4. Qo'ylar sistitserkozi.
5. Otlar anoplotsefalyatozlar.
6. Itlar dipilidiozi
7. Alfortioz
8. Mo'ynali hayvonlar sestodozlari
9. Hayvonlar oksiuerozi
10. Quyon passalurozi
11. Buzoqlar neaskaridiozi
12. Parrandalarning polimorfozi
13. Qo'y va echkilarning myulleriozi
14. Hayvonlarning filiyaritozlar
15. Otlar parafilyariozi
16. Qoramollar setariozi
17. Akantotsefalyatozlar
18. Ostertagioz
19. Ezofagostomoz
20. Respublikamiz hududidagi asosiy nematodozlar

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fan bo'yicha internet ma'lumotlarini to'plash, ularni o'rganish, o'quv adabiyotlari yordamida referat tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Ilmiy amaliyot (stajirovka).

Ilmiy amaliyot ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy amaliyot (stajirovka) magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrlar eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot ishlari, taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

Ilmiy amaliyot (Stajirovka):

- ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;
- fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;